

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Mamadaliyeva	
Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati	208
F.M.Mamadova	
Pedagogik madaniyat va kompetensiyani takomillashtirishning uslubiy jihatlari	211
Z.A.Boboyeva	
Uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili.....	214
G.H.Axmedova	
Jorj Eliotning "Daniel deronda" romanining o'ziga xos jihatlari tahlili.....	219
F.A.Temirova	
Hsg misolida idiomatik lug'atni tuzish yondashuvlarining uslubiy tahlili: taqqoslash, xususiyatlari va tavsiyalari	222
G.Sh.Zununova	
Zamonaviy o'zbek turar joyining dastlabki manbalari haqidagi masalalar bo'yicha	226
F.K.Yusupjanova	
Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	231
U.Abdullayeva	
Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash	235
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi	241
D.A.Xolmatov	
Odil Yoqubov hikoyalarining janr xususiyatlari	247
Sh.K.Xujamberdiyeva	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari	252
I.I.Soliyev	
OTMLar boshqaruvini isloh qilish va unga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish zarurati.....	257
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning gender xususiyatlari	264
D.D.Boymirzayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish va unga yangicha printsiplarini joriy qilish zarurati	270
M.Norinov	
Bo'lajak texnik mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini multimediya vositalari asosida rivojlantirish omillari	275
F.A.Askarov	
Jismoniy yuklama to'g'risida umumiy tushuncha va jismoniy mashqlar yuklamasining pedagogik xususiyatlari	279
S.Y.Xushvaqto, M.M.Jurayev, N.M.Qutlimuratov	
Mahalliy xomashyolar asosida olingan yangi ionitga yod ionlarining sorbsiya kinetikasi.....	282
U.A.Buriyeva	
Ingliz tilshunosligida to'liqsiz gaplarning shakllanishi	287
N.N.Teshayev	
Taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolik jamiyati ma'naviy-mafkuraviy omillarini mustahkamlash amaliyoti	291
M.Saminjonov	
Turli sohalardagi qasamyodlarning rasmiy tuzilishi.....	295

**BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA O'ZBEK MUSIQASI TARIXIGA DOIR
BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH YUZASIDAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINING
SAMARADORLIGI****ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ РАБОТ ПО РАЗВИТИЮ ЗНАНИЙ
ИСТОРИИ УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ****THE EFFECTIVENESS OF EXPERIMENTAL WORKS ON THE DEVELOPMENT OF THE
KNOWLEDGE OF THE HISTORY OF UZBEK MUSIC IN FUTURE MUSIC EDUCATION
TEACHERS****¹Mirzaaxmedova Yulduz Jamshid qizi**¹Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotasiya**

Maqolada bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish tizimini takomillashtirish jarayonida qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, tajriba-sinov ishlarini olib borish, samaradorlik darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega ekanligi chuqur tahlil qilingan.

Аннотация

В статье глубоко важно проанализировать и обобщить результаты, полученные в процессе совершенствования системы формирования знаний по истории узбекской музыки, провести экспериментальную работу, разработать методику определения уровня эффективности будущего музыкального образования учителя проанализировали.

Abstract

In the article, it is deeply important to analyze and generalize the results obtained in the process of improving the system of developing knowledge about the history of Uzbek music, conduct experimental work, and develop a methodology for determining the level of effectiveness of future music education teachers. analyzed.

Kalit so'zlar: *pedagogik tajriba-sinov ishlari, musiqa ta'limi, samaradorlik darajasi, o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish tizimi, metodika, tadqiqot, tadqiqot konsepsiyasi, pedagogik vazifalar.*

Ключевые слова: *педагогическая экспериментальная работа, музыкальное образование, уровень эффективности, система развития знаний по истории узбекской музыки, методология, исследование, концепция исследования, педагогические задачи.*

Key words: *Pedagogical experimental work, music education, level of efficiency, knowledge development system on the history of Uzbek music, methodology, research, research concept, pedagogical tasks.*

KIRISH

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish tizimini takomillashtirish jarayonida qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, samaradorlik darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik tizim samaradorligini aniqlashning muhim shartlaridan biri – ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarining to'g'ri tashkil etilishidir. Dissertatsiya ishining birinchi bobida bayon etilgan nazariy fikrlarning amaliy ishlanmalar bilan uyg'unlashtirilganligi, mavjud pedagogik jarayonning har tomonlama tahlil etilganligi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va yutuqlarni boyitish ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari davomida belgilab olindi. Shunga ko'ra, amalga oshirilgan ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish maqsadida maxsus ko'rsatkichlar tizimini o'z ichiga olgan dastur ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur dastur asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi ko'rsatkichlar, shuningdek, tajriba-sinov ishlari samaradorligini aniqlash metodikasi yoritildi.

Ushbu dasturni tuzishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – tadqiqot konsepsiyasi, obyekt, predmeti, vazifalari va ilgari surilgan ilmiy farazlardan kelib chiqqan holda, tajriba-sinov ishlari

samaradorligini oshirishning amaliy jihatlarini aniqlash va puxta o'rganish orqali, eng maqbul shakl, metod va vositalarni belgilashdan iborat [1].

Tajriba-sinov ishlari davomida quyidagi pedagogik vazifalar hal qilindi:

1. Tajriba-sinov maydonchalari aniqlandi.
2. Tajriba-sinov muddatlari, bosqichlari belgilandi va har bir bosqichda amalga oshiriladigan xususiy vazifalar aniqlandi.
3. Tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari, ya'ni respondentlar soni belgilab olindi hamda tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.
4. Respondentlar tajriba-sinov ishlarining amalga oshirilishidan xabardor qilindi.
5. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etuvchi mas'ullar aniqlandi.
6. Tajriba-sinov materiallari sifatida dastlabki ishlanmalar tayyorlandi va uning mazmuni tadqiqot bazasi sifatida universitet Kengashlarining yig'ilishlarida muhokama etildi.
7. "O'zbeki mumtoz musiqasi" va "Milliy musiqiy meros" turkumiga kiruvchi fanlar va modulli kurs dasturining mazkur yo'nalishdagi pedagogik imkoniyatlari o'rganildi.
8. Anketa, test, suhbat, intervyu, kuzatish, sotsiologik tadqiqot kabi metodlar yordamida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlik xolati aniqlandi.
9. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan maqbul shakllar, metodlar va vositalar belgilab olindi.
10. Ishlab chiqilgan metodika ta'kidlovchi tajriba-sinov jarayonida sinovdan o'tkazildi hamda uning natijalari tahlil etildi.
11. Ishlab chiqilgan metodika samaradorligini aniqlashga erishish. Shu maqsadda tadqiqot obyekti hisoblangan tajriba-sinov maydonlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda taqdim etilayotgan metodikadan foydalanildi hamda uning samaradorligi aniqlandi, zarur holatlarda uning mazmuniga o'zgartirishlar kiritildi.
12. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'zgartiruvchi va nazorat qiluvchi tajribalar izchil tarzda tashkil etildi va ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratildi.
13. Tajriba-sinov ishlarining natijalarini umumlashtiruvchi, ta'kidlovchi, o'zgartiruvchi, shuningdek, nazorat qiluvchi tajriba ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi, samaradorligi xususida yakuniy xulosa chiqarildi va umumiy natijalar matematik-statistik metod yordamida qayta ishlandi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, faoliyatning o'zlashtirilganligini aniqlashda o'xshash yondashuvlardan foydalaniladi. Milliy musiqiy merosga aksiologik munosabat, shuningdek, motiv va refleksiv nuqtai nazarning shakllanganligini aniqlashda moslashuvchan metodikalardan foydalanildi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini shakllantirishga tayyorligini aniqlashda mualliflik metodikalaridan foydalanildi.

O'z tadqiqoti bilan bog'liqlikda faqat ayrim aniqlik va qo'shimchalar kiritilgan. Ana shu jihat bilan bog'liqlikda tadqiqot doirasida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorligini aniqlashda quyidagi ball shkalalariga mos ravishda yuqori (kreativ-qadriyatga yo'naltirilgan), o'rta (vaziyatli-reproduktiv va past (sust-moslashuvchan) darajalarni belgilab oldik: yuqori – 2, o'rta – 1, past – 0 (1-jadval).

Har bir ko'rsatkich bo'yicha ball ko'rinishidagi baholashni kiritish bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlik darajasini aniqlashtirib beradi.

Zaruriy darajaga moslikni aniqlashtirishda ahamiyatlilikni guruhlashtirish intervallari hosil qilindi. Unga ko'ra, o'rtacha daraja ball ko'rinishidagi baholash diapazoni bo'yicha o'rtachadan 25 % og'ishish ko'rsatkichida aniqlashtiriladi. U holda, past va yuqori darajalarda og'ishish ko'rsatkichi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: R (min) dan $0,25 \cdot R$ gacha; yuqori daraja – $0,75 \cdot R$ dan R (max)gacha, bu yerda: R (min) – ball bahosining quyi chegarasini, R (max) – yuqori chegarasini bildiradi [3].

Tajriba-sinov ishlariga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Namangan davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetining 440 nafar talabasi jalb etildi.

Talabalarning "O'zbek mumtoz musiqasi" va "Milliy musiqiy meros asoslari" turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasi tahlil etildi. Mazkur tahlil tajriba-sinov ishlari jarayonida qo'llanilgan topshiriqlar asosida amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishga tayyorlik darajasi dinamikasi (foiz hisobida).

O' quv yili	OTM	O'zlashtirish darajasi	Tajriba guruhi (224 nafar)		Nazorat guruhi (216 nafar)	
			Tajriba avvalida	Tajriba so'nggida	Tajriba avvalida	Tajriba so'nggida
2020-2021 o' quv yili	O' zDSMI	A'lo	11,0	21,0	9,0	17,0
		Yaxshi	25,0	51,0	19,0	27,0
		Qoniqarli	64,0	28,0	72,0	56,0
	NamDU	A'lo	12,5	26,0	8,0	17,0
		Yaxshi	18,0	32,0	20,0	29,0
		Qoniqarli	69,5	42,0	72,0	54,0
	FarDU	A'lo	13,5	24,0	9,0	17,0
		Yaxshi	26	55,0	20,0	29,0
		Qoniqarli	60,5	21,0	71,0	54,0
	TDPDU	A'lo	14,5	25,0	10,0	19,0
		Yaxshi	28	60,0	22,0	31,0
		Qoniqarli	57,5	15,0	68,0	50,0
2021-2022 o' quv yili	O' zDSMI	A'lo	18,0	27,0	13,5	22,0
		Yaxshi	25,0	53,0	19,5	32,0
		Qoniqarli	57,0	20,0	67,0	46,0
	NamDU	A'lo	18,0	33,0	12,0	20,0
		Yaxshi	20,5	45,0	20,0	32,0
		Qoniqarli	61,5	22,0	68,0	48,0
	FarDU	A'lo	18,0	27,0	14,0	24,0
		Yaxshi	28,0	56,0	20,0	33,0
		Qoniqarli	54,0	17,0	66,0	43,0
	TDPDU	A'lo	19,0	28,0	16,0	26,0
		Yaxshi	30,0	57,0	22,0	35,0
		Qoniqarli	51,0	15,0	62,0	39,0
2022-2023 o' quv yili	O' zDSMI	A'lo	20,0	32,0	13,0	23,0
		Yaxshi	26,0	56,0	33,0	37,0
		Qoniqarli	54,0	12,0	54,0	40,0
	NamDU	A'lo	13,0	43,0	12,0	24,0
		Yaxshi	34,0	43,0	28,0	32,0
		Qoniqarli	53,0	14,0	60,0	44,0

FarDU	A'lo	20,0	44,0	14,0	24,0
	Yaxshi	28,0	44,0	36,0	39,0
	Qoniqarli	52,0	12,0	50,0	37,0
TDPU	A'lo	21,0	46,0	15,0	25,0
	Yaxshi	29,0	46,0	37,0	40,0
	Qoniqarli	50,0	8,0	48,0	35,0

NATIJALAR

Biroq natijalarni matematik-statistik tahlil qilish oson bo'lishi uchun va reprezentativlik asosida mazkur oliy ta'lim muassasalarining 128 nafarining natijalari tekshirildi. Natijalarni hisoblash uchun 66 nafar tajriba va 62 nafar nazorat guruhlarini natijalari asos sifatida olindi: Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari so'ngida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlashsamaradorligi qayta tekshirildi va jadval ko'rinishida umumlashtirildi (2-jadval). Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishga tayyorlik darajasi (ta'kidlovchi bosqich) **2-jadval**.

2-jadval

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishga tayyorlik darajasi (ta'kidlovchi bosqich)

Guruhlar	O'zlashtirish darajasi		
	Adaptiv	Situativ-reproduktiv	Kreativ
Tajriba guruhi	21,21 %	36,36 %	42,42 %
Nazorat guruhi	51,52 %	24,24 %	21,21 %

Asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari natijalari bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorligining adaptiv darajasi 2,36 martaga kamayganligini ko'rsatadi. Aksincha, situativ-reproduktiv daraja 1,53 marta va kreativ daraja 1,89 martaga ortganligi haqidagi xulosaga kelish imkonini beradi.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlashga yo'naltirilgan o'zgartiruvchi va nazorat qiluvchi tajribalar izchil tarzda tashkil etildi va ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratildi [4].

Tajriba-sinov ishlari umummilliy va aniq-ilmiy tamoyillar asosida amalga oshirildi: yaxlitlik, obyektivlik, samaradorlik, ilmiylik, talaba shaxsiga yondashuv, ilmiy axborotlarning zarurati va yetarli bo'lishi, ilmiy-metodik maslahatning ko'p tomonlamaligi, pedagogik tajriba-sinovni insonparvarlashtirish asosida olib borilishi natijalarning obyektiv va ishonarli bo'lishiga asos bo'ladi.

Matematik-statistik metod yordamida hosil bo'lgan qiymatlar bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlashda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli o'tkazilganligini tasdiqladi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadning aniqligi, ana shu maqsadning ijobiy natijasini ta'minlashga xizmat qilgan metodikaning mavjudligi erishilgan natijalarning aniqligini belgilab berdi.

MUHOKAMA

Ushbu miqdoriy ko'rsatkichlar Styudent metodi asosida qayta tahlil etildi. Maxsus dastur asosida tashkil etilgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat vositasida sifat ko'rsatkichlarining haqqoniyligini aniqlash maqsadida tajriba hamda nazorat guruhlariga ajratilgan talabalar tomonidan qayd etilgan miqdorlarni 2 -jadvalda o'z ifodasini topgan sonlarga asosan belgilaymiz.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorligini tekshirish maqsadida N0 (boshlang'ich, ya'ni, mtqmn ko'rsatkichlarning o'zaro tengligini ifodalovchi g'oya) hamda H1 faraz (muqobil, ya'ni, mt>mn ko'rsatkichlarning o'zaro nomutanosibligi, xususan, tajriba guruhi respondentlari tomonidan qayd etilgan sifat ko'rsatkichlarning nazorat guruhlarini respondentlari ko'rsatkichlaridan yuqori ekanligini ifoda etuvchi g'oya)lar qabul qilindi.

Qo'yilgan masalani quyidagicha hal etamiz: $(x-mT)-(y-mH) = x-u$ tushishi lozim bo'lgan ishonchlilik oralig'i:

-ta

ni tuzamiz. Formula uchun qiymatlarni 3.2.8-jadvaldan olamiz.

Tajriba guruhlarini uchun:

O'rtacha qiymat: $\bar{x} = 4,04$

O'rtacha kvadrat qiymati: $X^2 = 16,35$

O'rtacha kvadrat qiymati: $X^2 = 16,77$

Dispersiya: $ST^2 = 16,77 - 16,35 = 0,42$

Miqdor: $ST^2/n = 0,42/320 = 0,001$

Nazorat guruhlarini uchun:

O'rtacha qiymat: $\bar{u} = 3,67$

O'rtacha kvadrat qiymati: $U^2 = 13,47$

O'rtacha kvadrat qiymati: $U^2 = 14,07$

Dispersiya: $ST^2 = 14,07 - 13,47 = 0,60$

Miqdor: $ST^2/n = 0,60/322 = 0,002$

3.9-jadval ko'rsatkichlariga asosan t_2 miqdor $q_{0,05}$ dan topiladi: $t_2 = 1,96$. U holda ishonchlilik oralig'i quyidagicha bo'ladi: $(-1,96^*; 1,96^*) = (-0,16; 0,16)$. Demak, $X-U = 0,42 - 0,60 = -0,18$ hosil bo'lgan qiymat ishonchlilik oralig'iga tushmaydi. Olingan natijalarga ko'ra, N0 (boshlang'ich) faraz rad etiladi va unga muqobil bo'lgan H1 faraz, ya'ni, $x > u$ qabul qilinadi. Shunday qilib, tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorligining sifat va miqdoriy darajasi oshganligini ko'rsatuvchi xulosaning haqqoniyligi isbotlandi.

Matematik-statistik metod yordamida hosil bo'lgan qiymatlar bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlashda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli o'tkazilganligini tasdiqladi. Bu esa, tadqiqot farazi to'g'riligini asoslash imkonini berdi.

Demak, tajriba-sinov guruhlarida talabalar bilimlarining ko'rsatkichlari o'rta hisobda 13,4 % ga oshgan.

Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari, shuningdek, ularning mohiyatini asoslashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan nazariy g'oyalarning bir-birini uzluksiz ravishda to'ldirib borishi, tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadning aniqligi, ana shu maqsadning ijobiy natijasini ta'minlashga xizmat qilgan metodikaning mavjudligi erishilgan natijalarning aniqligini belgilab berdi.

Ta'kidlovchi bosqichda olingan natijalar bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlashning konseptual modeli va takomillashtirilgan tizimi samaradorligini tasdiqladi.

XULOSA

Xulosa shundayki, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishda buyuk mutafakkirlarning ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy merosi hamda musiqa, musiqa ta'limi fani rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bilishi va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish malakasiga ega bo'lishi kerak bo'ladi [5].

Musiqiy fanlarni o'qitishda talabalarning milliy musiqiy merosni kelajak avlodga yetkazishga doir fikr va mulohazalarni o'qituvchi tomonidan o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quv materiali

mazmuniga mantiqiy jihatdan to'g'ri bog'lay olish, nazariy ma'lumotlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llay bilish, talabalar fikrlarini qiyoslashtirish, shuningdek, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaralari pedagogik tajriba-sinovlarda o'z tasdig'ini topdi.

Statistik tahlilni har ikki tanlanma bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hisoblashdan hosil bo'lgan qiymatning (13,4%) tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli o'tkazilganligini tasdiqladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

6. Mustafoyev B.I., Norova Sh.U., Abdurauv Fitrat va o'zbek musiqashunosligi. // San'at yo'nalishlarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash: izlanish, yechim va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Buxoro. 2013. –b. 22-23.

7. Omanqulova Sh. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini modulli o'qitish texnologiyalari asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020. –B. 62.

8. Yuldoshev.U.Y. Musiqa o'qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va professiogrammasi. //Zamonaviy ta'lim. 2019. № 9(82). –B. 51.

9. Яковлев Е.В. Реализация аксиологического подхода в педагогическом исследовании//Вестник ЮУрГУ. Серия: Образование. Педагогические науки. – 2012. – № 4(263). – С. 26-29.

10. The Global Religious Landscape. Pew Research Center. Washington, D.C. 2012. -P.9.